

ZOTLI QORAMOLLARDA PODODERMATITLARNI KELITIRIB CHIQUARUVCHI OB'KTIV OMILLAR

Eshquvatov X. H., Bozorov Q. K., Niyozov X. B., Tashtemirov R. M.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizga chetdan olib kelinayotgan turli zotga mansub qoramollarda pododermatit kasalligini keltirib chiqaruvchi bir qancha ob'ektiv sabablarga to'xtalib o'tilgan, bundan tashqari barmoq va tuyoq kasalliklarini kelib chiqishi ozuqa ratsiyonidagi ayrim kamchiliklar, qoramollar saqlanishida tagjoyining ahamiyati pododermatit profilaktikasida muxim o'rin tutishi keltirilgan.

Kalit so'zlar: pododermatitlar, tag joy, beton, gol'shtin, qizil eston, mikroflora, infeksiya.

Kirish. Respublikamizda keyingi yillarda chorvachilik tarmog'ini jadal rivojlantirish borasida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bunda chorva mollari bosh soni va mahsuldorligining oshishi, shuningdek, hayvonlardagi turli yuqumsiz oyoq kasalliklari, jumladan barmoq va tyeklarning yiringli yallig'lanishlar sabablarini aniqlash, erta diagnostika qilish, davolash va oldini olish samarali chora-tadbirlarini ishlab chiqish va mavjudlarini yanada takomlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmonida 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash maqsadida "Chorvachilik ozuqa bazasini kengaytirish va ishlab chiqarish" hajmini 1,5-2 barobar ko'paytirish, chorva mollari bosh sonini ko'paytirish va mahsuldorligini oshirish bo'yicha yangi loyihalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan. Shu boisdan, respublikamizning mintaqaviy sharoitlarini inobatga olib, qoramollar tuyoq kasalliklarining uchrash darajasi, ularga erta tashxis qo'yish, etiopatogenezini aniqlash, davolash va oldini olishning samarali uslub va vositalarini ishlab chiqish hamda takomillashtirish maqsadida biz olib borilayotgan tadqiqotlar dolzarb bo'lib hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligi. Aholini sifatli chorvachilik maxsulotlariga bo'lgan talabini qondirish maqsadida chetdan maxsuldorlik ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan zotli qoramollar kirib kelmoqda. Bu qoramol zotlari o'zining sermaxsuldorligi, tana vaznining og'irligi, kasalliklarga chidamsizligi bilan o'zimizning maxalliy zotli qoramollardan ajralib turadi. Fermerlar xoriydan zotli qoramollarni olib kelishida veterinariya mutaxasislari bilan maslaxatlashmaganligi, o'zining shart sharoitidan kelib chiqqan holda saqlash sharoitini tashkil etganligi, arzon, ammo talabga javob bermaydigan ozuqalarni qo'llashi va o'z vaqtida tuyoqlarga ishlov bermasligi pododermatit yoki boshqa xildagi tuyoq kasalliklarini kelib chiqishiga zamin yaratadi bu holarlarni bartaraf etish asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Shularni inobatga olib, mazkur ishimizning asosiy maqsadi ob'ektiv omillarni ilmiy asoslab berishdan iboratdir.

Tadqiqot ob'ekti, materiallar va metodlar. Tajribalar to'rt xil saqlash sharoitiga mo'ljallangan 4 ta fermer xo'jaliklarida: Urgut tumani Ishchan qishlog'idagi "Azzam Bisnes Baraka" fermer xo'jaligi (mollar saqlanadigan tag joy pishiq g'ishtli), Urgut tumani, Ishchan qishlog'idagi "Uchqun" fermer xo'jaligi (mollar saqlanadigan tag joy oddiy tuproqli yer), Tayloq tumani



“Abduqaxxor-Agro servis” fermer xo‘jaligi (mollar saqlanadigan tag joy betonli), Samarqand tumani Ipakchi qishlog‘idagi “Karimova Guljaxon” fermer xo‘jaligi (mollar saqlanadigan tag joy tuproqli yer bilan go‘ng aralash) olib borildi.

Ilmiy tadqiqotlar yil fasllari kesimida olib borildi. Olingan ilmiy natijalarga statistik ishlov berildi va ular klinik kuzatuvlar natijalari bilan solishtiriladi. Barcha fermer xo‘jaliklardagi mollar tekshirilganda hayvonlar oyoqlari va bevosita tuyoqlarining morfofunktsional holati, oqsoqlanish turi va darajasi, tuyoqlar yallig‘lanishida ularning maxalliy harorati, shakli, tuyoq shoxining ahvoli aniqlandi va boshqa umumiy va maxsus tekshirishlar o‘tkazildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Dastlabki tadqiqotlar Urgut tumani Ishchan qishlog‘idagi “Azzam Biznes Baraka” fermer xo‘jaligida, 77 bosh gol’shtin zotiga mansub sigirlarda bahor, yoz, kuz va qish oylarida o‘tkazildi. Xo‘jalikdagi qoramollarning oyoqlari sohasi klinik tekshiruvdan o‘tkazilganda faqat bahor va kuz oylarida 14 bosh sigirda barmoq va tuyoq sohasida va barmoq bo‘g‘imida o‘zgarishlar kuzatildi. Hayvonlarda klinik belgilardan oyoqlar oqsoqlanishi, ishtaha pasayishi, barmoqning tushoq, yumaloq va tuyoq qismlari shishishi va mahalliy harorati oshganligi kuzatildi. Sigirlar saqlanadigan pollar pishiq g‘ishtlar terilgan. Kunduzi mollar tuproqli yayratish maydonchasida saqlanadi. Tuyoqlarga ishlov berish bir yilda bir marta, kezi kelganda ikki marta o‘tkaziladi.

Navbatdagi tadqiqotlar Urgut tumani Ishchan qishlog‘idagi “Uchqun” fermer xo‘jaligida, 79 bosh gol’shtin zotiga mansub sigirlarda o‘tkazildi. Ushbu fermer xo‘jaligida mollar oddiy yerda saqlanadi. Bu fermer xo‘jaligida yil davomida kasallik uchramadi.

Navbatdagi tadqiqotlar Tayloq tumani, “Abduqaxxor-Agro servis” fermer xo‘jaligida 80 bosh gol’shtin zotiga mansub sigirlarda o‘tkazildi. Ushbu fermer xo‘jaligida mollar betonli pollarda saqlanadi. Bu fermer xo‘jaligida jami 25 bosh sigirlarlarda bahor va kuz oylarida barmoq va tuyoq kasalliklari kuzatildi.

Navbatdagi tadqiqotlar Samarqand tumani, Ipakchi maxallasi “Karimova Guljaxon” fermer xo‘jaligida 80 bosh qizil eston zotiga mansub sigirlarda bahor, yoz, kuz va qish oylarida o‘tkazildi. Ushbu fermer xo‘jaligida mollar tuproqli yer bilan go‘ng aralash pollarda saqlanadi. Bu fermer xo‘jaligida yil davomida kasallik uchramadi.

Olingan natijalar quyidagicha bo‘ldi: qattiq yani g‘ishtli va betonli tag joyda saqlanadigan sigirlarning tuyoqlari o‘zgargan holatda o‘sganligi qayt etildi. Oddiy yer tuproqli joyda va go‘ng tuproqli joyda saqlanadigan sigirlarda tuyoqlar patologiyalari deyarli uchramadi. Qoramollar tuyog‘i odatda bir oyda 6.5-8.51 mm gacha o‘shishini inobatga olsak, oddiy yer tuproqli joyda va go‘ng tuproqli joyda saqlanadigan sigirlarda tuyoqlarning o‘shish surati va morfofunktsional sifatleri o‘zgarmagan holatda edi.

Qattiq tag joyda saqlanadigan sigirlarning tana vazni tuyoqning yumshoq tovoniga tushar ekan, achchiq siydik ta’siridan betondan ajralgan mayda tosh bo‘lakchalari va tag joylar notekisliklari yumshoq tovonning ezilishiga sabab bo‘ladi, sohadagi mayda kapilyar qon tomirlari yorilishi natijasida esa mikroqonquyilishlar hosil bo‘ladi.

Bizga ma’lumki, jarrohlik infeksiyasi yuzaga kelishi uchun to‘rtta holat mavjud bo‘lishi kerak. Birinchisi - kontaminatsiya yani zararlangan yumshoq tovonning to‘qimalariga infeksiya tushishi. Qattiq tag joyda saqlanadigan qoramollar tuyoqlarida bu omilga etarli darajada imkoniyatlar mavjud.



Ikkinchisi - mikroflora yani zararlangan yumshoq tovonning to'qimalarida infeksiya o'rnashib olishidir. Zararlangan to'qimalardagi mikroqonquyilishlar mikroflora uchun "ozuqa muxitini" ta'minlab beradi. Natijada bu omil dastavval aseptik keyinchalik barmoq va tuyoqlarning infeksiyon holatiga o'tishiga sabab bo'ladi.

Uchinchi ya'ni infect holati - bunda kasallangan to'qimada infeksiya ko'payib, rivojlana boshlaydi va yumshoq tovonning ezilgan sohasidagi to'qimalarni yemiradi. Agar infeksiya to'qima o'rtasidagi chegarani yorib o'tsa – bunda u to'rtinchi holatga ya'ni infeksiyon pododermatitlar kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Xulosalar.

1. Molxonalarda rezinali to'shamalar va keng yayratish maydonlari mavjudligi tuyoqlar yumshoq tovonni ezilishining oldini olishda xizmat qiladi.
2. Notekis terilgan va siniq pishshiq g'ishtdan va betondan yasalgan tag joylar, ayniqsa ular notoza holatda bo'lganda pododermatitlar kelib chiqishiga sabab bo'ladi.
3. Silos va senajlar meyyoridan ortiq berilishi oshqozon-ichak tizimida kislotalik muxiti oshishiga go'ng suyuqlashishiga, achchiq siydik ajralishiga, nam sharoit esa kasallikning kelib chiqishiga obektiv omil bo'ladi.

Takliflar.

Tavsiya sifatida mikroorganizmlar zanjirini uzish maqsadida hayvonlarni quruq toza keng elastiklik xususiyati mavjut tag joylarda saqlash, ozuqa ratsiyonini to'g'ri yo'lga qo'yish, tuyoqlarni haddan ziyod o'sib ketishiga yo'l qo'ymaslik barmoq va tuyoq kasallikning oldini olishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Nuriddinov, B. Y., & Niyazov, H. B. (2022). MORPHOLOGICAL INDICATORS OF BLOOD IN THE TREATMENT OF PURULOUS-NECROTIC PROCESSES IN THE TOES OF COWS WITH DIFFERENT METHODS. Conferencea, 150-155.
2. Nuriddinov, B. Y., & Niyazov, H. B. (2022). INFLUENCE OF ETIOLOGICAL FACTORS AND SEASONS ON THE OCCURRENCE OF PURULOUS-NECROTIC PROCESSES IN THE TOES OF BREEDDED COWS. Conferencea, 116-122.
3. Ниезов, Х. Б., & Эшкуватов, Х. Х. (2019). БИОЛОГИЧЕСКОЕ ДЕЙСТВИЕ НА ОРГАНИЗМ КОРОВ АУТОКРОВИ, ОБЛУЧЕННОЙ НЕОН-ГЕЛИЕВЫМИ ЛАЗЕРНЫМИ ЛУЧАМИ. In СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ, ТРАДИЦИИ И ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В РАЗВИТИИ АПК (pp. 100-105).
4. Николаева О.Н. Становление энтеробиоценоза новорожденных телят и методы его коррекции. Вопросы нормативно-правового регулирования в ветеринарии. 2010. № 4. С. 128-129.
5. Тазиев И.З. Причины распространения гнойно-некротических поражений копыт. ФГБОУ ВО Башкирский ГАУ, Материалы международной студенческой научной конференции «Молодёжный аграрный форум – 2018» (20–24 марта 2018 г.) г. Уфа, Россия
6. Niyazov H.B. Veterinariya xirurgiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2021 yil



7. Эшбуриев, Б., and Ш. Уразов. "Sigirlarda bachadon subinvolyutsiyasining etiopatogenezi." Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности 1.2 (2022): 310-313.
8. Dilmurodov N. The Developmental Peculiarities of Tubular Bones of Autopodies of Sheep at Postnatal Ontogenesis in Dependence on Habitat Conditions //新疆农业大学学报. – 2010. – Т. 6.

